ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Jo‘rayeva Ozoda Karim qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI FAOLLASHTIRISHDA MILLIY-MA’NAVIY MEROSDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jarayonida faollashtirishda milliy-ma’naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an’analar, buyuk allomalar merosi orqali o‘quvchilarda bilimga qiziqish, mustaqil fikrlash va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, faollik, milliy-ma’naviy meros, xalq pedagogikasi, tarbiya.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi va milliy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu jarayonda ta’lim mazmunini milliy-ma’naviy meros bilan boyitish katta pedagogik ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayonidagi faolligini oshirishda xalq pedagogikasi, urf-odatlar, milliy o‘yinlar, maqol va matallar, ertaklar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [1].

Milliy-ma’naviy meros — bu xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy, axloqiy, ma’rifiy va tarbiyaviy qadriyatlar majmuasidir. Unga xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy bayramlar, buyuk mutafakkirlar asarlari kiradi. Boshlang‘ich ta’limda ushbu merosdan foydalanish:

- o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi;
- axloqiy sifatlarni shakllantiradi;
- dars jarayoniga qiziqishni oshiradi;
- bilimlarni hayot bilan bog‘lashga yordam beradi [2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq obrazli tafakkurga ega bo‘lgani sababli ertaklar, rivoyatlar, afsonalar orqali berilgan bilimlar samaraliroq o‘zlashtiriladi. Masalan, dars jarayonida:

- maqol va matallar orqali axloqiy tushunchalarni singdirish;
- milliy o‘yinlar yordamida jismoniy va aqliy faollikni oshirish;
- ertak va rivoyatlar asosida o‘qish savodxonligini rivojlantirish;
- buyuk allomalar (Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy) hayoti va ijodidan namunalar keltirish orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin [3].

Bu usullar o‘quvchilarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishiga xizmat qiladi. Milliy ruhda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday darslarda:

- o‘quvchilar erkin fikr bildiradi;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi;
- bilimlar mustahkam va uzoq muddatli bo‘ladi [4].

Shuningdek, milliy-ma'naviy meros asosida olib borilgan ta'lim-tarbiya jarayoni ota-ona va maktab hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish yosh – avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa , boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy – axloqiy fazilatlarni shakllantirish – ularningshaxs sifatida kamol topishida, ijtimoiy hayotga moslashishida hamda barkamol inson bo'lib voyaga yetishishida hal qiluvchi omildir .Har bir millatning o'z manaviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviy yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir [5] .

Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat ,yo saodat – yo falokat masalasidir.Hayot yo'lida birinchi masala – maktab masalasidir" [6] . Ushbu so'zlarda insonni kamol toptirishga ,savod chiqarishiga yordam beradigan eng muhim narsa maktab ekanini , ta'kidlab o'tgan.

Jahonda bo'lmasa muallim agar

Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar

Haqiqatdan ham ustozlarimiz bugungi kunimiz va kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizning ertangi kuni ustozlarimiz berayotgan ta'lim tarbiya bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa ,boshlang'ich sinf ustozlari jajji bolalar qalbidan o'zgacha o'rin egallaydi.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy – ma'naviy merosdan foydalanishning imkoniyatlari esa cheksiz . Milliy qadriyatlar kishilar ma'naviy faoliyati mahsuli, bilimning murakkab jarayoni natijasida yuzaga kelgan bilim, qarash va malaka samarasidir.

Mustaqil O'zbekistonda yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirishga o'ta muhim vazifa sifatida qaralmoqda .O'zlikni anglash va ma'naviy tarbiya ishlarini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish ijtimoiy ehtiyojga aylandi. O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk ,intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan [7]. Miliy ma'naviy meros – bu xalqning asrlar davomida shakllangan : urf – odatlar an'analar, xalq og'zaki ijodi(ertak, maqollar, topishmoq, afsonalar), milliy qadriyatlar va axloqiy me'zonlar boshlang"ich sinf o'quvchilari uchun juda qiziqarli dars jarayonida ushbu manbalardan foydalanish .

O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, passiv tinglovchini faol ishtirokchiga aylantiradi, o'yinli va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi.Shu o'rinda o'zim yozgan " Ajdodlar merosi" nomli she'rimni aytmoqlikni joiz deb bildim:

Tarix sahifasin ochaman asta

Undan kuch olaman ruhimga madam.

Donolar hikmatin tuyaman shunda,

Ajdodlar merosi- yoshlarga ibrat.

Qancha jasorat-u mashaqqat mehnat,

Yoruğ kunlar uchun chekilgan zahmat.

Shu kunlar qadriga yetaylik do‘stlar,

Ajdodlar marosi - yoshlarga ibrat.

Kubro uchun yurtim demoqlik sharaf,

Amir Temur qurdi ulug‘ saltanat.

Vatan Bobur uchun armonga qoldi.

Ajdodlar merosi - yoshlarga ibrat.

Alpomishdek mardlar maydonga chiqdi,

Barchinoydek qizlari ularga madad.

Mudom xotirada ajdodlar yodi,

Ajdodlar merosi- yoshlarga ibrat.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat va jamiyatni modernizatsiyalash bo‘yicha qo‘yilgan vazifalar aholi ongiga ustuvorlik qiluvchi qadriyatlar haqidagi tasavvurlar va qadriyat me'zonlari tizimi yuzasidan real fikr yuritish va har tomonlama o‘rganishni fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning qadriyatni tadqiq etishini talab etadi.Milliy ma’naviy merosda; vatanparvarlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, faollik, do’stlik va mehr – oqibat kabi fazilatlar mujassamdir. Bu qadriyatlar boshlang’ich sinf yoshdagi bolalarning ruhiy dunyosiga mos bo’lib, tarbiyaviy jarayonini samarali tashkiy etishda yordam beradi. Maqollar ,topishmoqlar xalq og’zaki ijodi na’munalaridan foydalanish o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini boyitadi . Mustaqil fikrlashga o’rgatadi,mantiqiy tafakkur va xotirani rivojlantiradi .Boshlang’ich sinf o’quvchilarini faollashtirishda milliy ma’naviy merosdan foydalanish – bu zamonaviy pedagogik talablar bilan milliy qadriyatlarning uyg’unlashuvidir. U ta’lim samadorligini oshiradi, tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faollashtirishda milliy-ma’naviy merosdan foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ushbu merosni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish orqali o‘quvchilarning bilimga qiziqishi, milliy g‘ururi va ma’naviy barkamolligini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1992.
3. Jo‘rayev R.X. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2010.
4. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2018.
5. Hasanboyeva O, To‘raqulov X. Xalq pedagogikasi asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2004.

6. Xabibova Umriniso. Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(01), Jan., 2024 SJIF 2024 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. — Toshkent, 2021.